

OKKOZIONAL METAFORALARNING ASAR BADIYYATINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (CHO'L PON SHE'RIYATI MISOLIDA)

Abduraximonova Sofiya

NavDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15209307>

Annotatsiya: Okkazonalizm ijodkorning o'z hissiy qarashlarini, g'oyalarini to'laqonli ifodalashga xizmat qiladi. Narsa, voqea-hodisa, shaxslarning ijobiy hamda salbiy xususiyatlarining barcha qirralarini aks ettirish uchun lug'atlardagi mavjud so'zlarning imkoni bo'lmaganda, bu vazifani bajarish okkazonalizmlarga yuklatiladi. Okkazonal birliklar shoirning ijod mahsulidir.

Kalit so'zlar: Okkazonalizm, metafora, okkazonal metafora.

Til birliklaridan matnda ma'lum maqsadlarda foydalanish matnning uslubi uchun xizmat qiladi. «Badiiy nutqda til me'yorining uslubiy xususiyatlariga maqsadli murojaat qilinadi. Me'yorga nisbatan har bir chekinish "qonuniylashgan" holda paydo bo'ladi, chunki til birliklari estetik mazmunni, obrazlilikni shakllantiruvchi vositalardandir¹».

Olamni bilishda o'xshatishning o'rne beqiyosdir. Chunki har bir kuzatilayotgan narsa-predmet, jarayon avval o'zlashtirilgan narsa-predmet, jarayonga qiyoslanadi. Ular o'rtasidagi o'xshashlik avvalgi nomning yangi narsapredmet, jarayonning qo'llanishi uchun sabab bo'ladi. Dastlab tilda mavjud bo'lgan nomning ma'lum o'xshashlik asosida yangi ma'noni ifodalash uchun qo'llanilishi ham nominativ, ham ekspressiv vazifani bajaradi. Ko'chimning ana shunday turlaridan biri metaforadir. Jahon tilshunosligida D.Galimova o'z tadqiqotida metaforalarni uzual va okkazonal turlarga ajratadi². Ularning har ikkisi ham badiiy asar uchun hissa qo'shadi. Bu esa ba'zi asarlarning favqulotda go'zal va esda qolarli badiiy asarga aylantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolamizda Cho'lpon she'riyatida qo'llanilgan okkazonal metaforalarni tahlil qilib o'tamiz.

Kuz chog'ida... tuproqlar gezarib qoladilar,
Gezarib qoladilar kuz chog'i tuproqlar.
So'ng damda yaproqlar qizarib oladilar,
Qizarib oladi so'ng damda yaproqlar.(Cho'lpon "Xazon")

Ijodkor yuqorida "gezarib qoladilar" va "tuproqlar" kabi okkazonal metaforalarni qo'llaydi. "Gezarib qolgan tuproqlar" okkazonal metafora sifatida ishlatilsa, bu tuproqning jismoniy holati emas, balki uning ma'nosi orqali insonga hos o'xshatish holatni anglatadi. Gezarmoq-Rangi o'chib oqarib ketmoq, bo'zarmoq ma'nosiga ega. Insonlarga xos holatdir, ma'lumki Cho'lpon yashagan davrda qatag'on qurbonlari bo'lishgan. Yerlarning gezarishi shu qurbonlarning guvohi bo'lishgani uchun deya tahlil qilish ham mumkin.

Bu yerda quyosh
Juda erinchak
Nozli kelinchak
Bilgani o'ynash (Cho'lpon "Bu yerning qishi")

¹ Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. Фанлари номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.–Б.7.

² Галимова Д.Н. Метафорическая картина мира русских говоров Амурской области (структурный и Функциональный аспекты): Автореф. Дисс. .. канд. Филол. Наук. – Томск, 2010. – С.4

Quyoshga nisbatan *erinchak*, *nozli kelinchak* kabi o'xshatishlarni ishlatish Cho'lpon she'riyatida uchraydi.

Men-da ojiz u muhitning oldida,
Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda,
Oq kallalik qora devni so'kmakka

(Cho'lpon, "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi").

Ijodkor yuqoridagi murakkab okkazional metafora orqali zolimlarga nisbatan o'z salbiy munosabatini ifodalagan. Bu okkazional birlik so'z birikmasi zanjiri orqali ifodalangan.

Kishan, gavdamdagi izlar bu kun ham bitgani yo'qdir!

Temir barmoqlaringning dog'i butkul ketgani yo'qdir!

So'z ustasi bo'lgan Cho'lpon metaforalardan ham unumli qo'llanilgan. Yuqoridagi parchada kishanga nisbatan *temir barmoqlar* o'xshatishidan foydalanadi. Metaforalar misralarning ta'sirchanligini ortiradi, estetik mazmun bag'ishlandi va she'rlarning o'qish unumdorligini ortiradi.

Ijodkorning aytmogchi bo'lgan fikrini o'quvchi oson, lo'nda va albatta, badiiy-estetik tarzda yetkazish uslubi qarib barcha asarlarda bor va bu tabiiy. Metafora- har bir shoirda botiniy xislatlarni she'rga aylantirishining o'ziga hos yangicha usuli, deb xulosa qilishimiz ham mumkin. Har bir shoir bu usulidan o'zining uslubida, ya'ni so'zlar, jumlar, ba'zan esa butun bir bandlar, butun she'rlar doirasida foydalanadi. Ana o'shanda shoirlar tomonidan yangi o'ziga xosliklar kashf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. Фанлари номз. ...дисс. автореф. –Самарқанд, 2004.–Б.7.
2. Галимова Д.Н. Метафорическая картина мира русских говоров Амурской области (структурный и Функциональный аспекты): Автореф. Дисс. .. канд. Филол. Наук. – Томск, 2010. – С.4.
3. Badiiy til muammolari. // "Inqilob va Adabiyot" Toshkent. 19773.
4. Fitrat "Tanlangan asarlar" Toshkent. " Ma'naviyat" 2009.
5. Abdulhamid Cho'lpon "Buloqlar quchog'ida" Toshkent. 2023
6. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – T.: Akademnashr, 2011.- B. 85-88